

GANDBOLCHILAR O‘YIN TEXNIKASI SHAKILLANTIRISHDA MURABBIY FAOLIYATINING AHAMIYATINI

Azizov Nosirjon

Namangan davlat universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti o‘qituvchisi: dotsent,

Sarbarova Zulayxo Asqarjon qizi

Namangan davlat universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti magistri

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi **Gandbolchilar o‘yin texnikasi shakillantirishda murabbiy** faoliyatining ahamiyatini haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Sport murabbiysi, sportchi, sportchi tayyorgarligi, gandbol texnikasi, musobaqa usuli.

ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ ТРЕНЕРА В ФОРМИРОВАНИИ ТЕХНИКИ ИГРЫ ГАНДБОЛИСТОВ

Аннотация: В данной дипломной работе представлены теоретические сведения и практические рекомендации о роли коучинга в формировании гандбольной техники.

Ключевые слова: спортивный тренер, спортсмен, подготовка спортсмена, техника гандбола, соревновательный метод.

THE IMPORTANCE OF COACHES ACTIVITIES IN THE FORMATION OF GAME TECHNIQUES

Annotation: This thesis provides theoretical information and practical recommendations on the importance of the coach's work in the formation of handball techniques

Key words: Sports coach, athlete, athlete training, handball technique, competition method.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz axolisini salomatligini yanada mustaxkamlash maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori chiqdi. Mazkur qarorda Respublikamiz aholisini barcha qatlamlari uchun jismoniy tarbiya va sport orqali salomatliklarini saqlashda va sport bilan shug‘ullanishlariga imkoniyatlar qanday darajada yaratilganligi batafsil yoritib berilgan. Shundan kelib chiqqan holda sportni ommoviy lashtirish uchun avvalo jismoniy madaniyatni aholi o‘rtasida ayniqsa, maktab o‘quvchilari orasida keng shakillanishi kelajakda sport bilan shug‘ullanish uchun mustahkam poydevor va sportchini shakillantirishda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi.[1]

Ishning maqsadi: Sportchini shakillantirishda murabbiy faoliyatining ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish.

Ishning vazifalari : 1) Gandbol mashg‘ulotlarida murabbiy metodikasining oziga xosligini aniqlash;

2) Murabbiyning intellektual salohiyatini mashg‘ulot samaradorligiga ta‘sirini o‘rganish;

Murabbiy metodikasi haqida so‘z yuritilganda Jismoniy tarbiya va sportning asoschilaridan bo‘lgan P.F.Lesgafning murabbiy metodikasiga “metod bu men” deb tariff bergandi. Albatta har bir sportning o‘riga hos o‘gatish usuli bolgani kabi har bir murabbiyning ham o‘z o‘rgatish usuli ya’ni metodi bo‘ladi. Murabbiy qanchalik iqtidorli va tashabbuskor bo‘lsa hamda tajribali bo‘lsa shunda o‘zi va shogirdlari yuqori marralarni zaft eta oladi. Bizga tanish bo‘lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg‘ulotlarda ma’lum bir o‘yin yoki harakat texnikasini o‘rgatishda faydalaniladi. Musobaqa usulining o‘ziga xosligi shundaki u orqali o‘yin texnikasini gandbolchilar maksimal nomoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o‘zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari haqida so‘z yuritilganda albatta quydagi usullarni yodga olamiz. Musobaqa

usuli asosan mashg‘ulotlarda yangi o‘yin texnikasini o‘zlashtirilgandan so‘ng qo‘llaniladi natijada gandbolchilari shu harakatlarni o‘zaro jamoalar o‘rtasida kichik musobaqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o‘ziga xosligini to‘la yoritishga kamlik qiladi va uning yana bir eng kerakli jihati uni mashg‘ulotlarda faqatgina o‘yin texnikasiga oid harakatlarni tarbiyalashgina bo‘lmay, u orqali gandbolchilar hujum va himoya taktikasini rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

Xulosa

Odamni inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi, odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat bilan mujassamlashadi. Hozirgi kunda kelajagimizni qanday bo‘lishi biz tarbiyalayotgan farzandlarga bog‘lik. Bunda kelajak avlodni kamolotida jismoniy tarbiya va sport faoliyati juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Oilada shaxs kamol topadi, shaxsni ongli ma’suliyatni shakllantirish uni jamiyatga daxldor ekanligini anglatish barchasidan muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, inson ma’naviyatli bo‘lishi uchun juda kup bilim va tafakkurga va ayni vaqtda jismoniy tarbiyalangan bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. TOSHKENT “O‘zbekiston” 2017-yil 484. 5-b
2. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA’LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
3. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b.
4. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
5. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.